

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14017440>

KATTAQO‘RG‘ON SUV OMBORI SUVIDAN FOYDALANISH

Bobojonov Nurimon Shaxriyor o‘g‘li

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, talabasi

nurimonbobojonov@gmail.com

Annotatsiya: *Kattaqo‘rg‘on suv omborining tabiiy sharoiti va geografik tavsifi, unda daryo havzasining geografik o‘rni, geologik tuzilishi va relyefi, iqlim sharoiti, tuproq va o‘simlik qoplami tabiiy va antropogen gidrografik tarmoqlari o‘rganilgan. Kattaqo‘rg‘on suv omborining Samarqand viloyati hududida suv resurslaridan foydalanish masalalariga bag‘ishlangan. Kattaqo‘rg‘on suv ombori suvining Samarqand viloyati tumanlari bo‘yicha taqsimoti ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zan, irmoq, sug‘orish, qayir, to‘g‘on, antropogen, gidrografik.*

Abstract: *Natural conditions and geographical description of the Kattakorgan reservoir, in which the geographical location of the river basin, geological structure and relief, climatic conditions, natural and anthropogenic hydrographic networks of soil and plant cover are studied. It is dedicated to the issues of using water resources in the territory of the Kattakorgan reservoir in the Samarkand region. The distribution of Kattakorgan reservoir water by districts of Samarkand region was considered.*

Key words: *Uzan, tributary, irrigation, canal, dam, anthropogenic, hydrographic.*

Аннотация: *Природные условия и географическое описание Каттакорганского водохранилища, в котором изучены географическое положение бассейна реки, геологическое строение и рельеф, климатические условия, природные и антропогенные гидрографические сети почвенного и растительного покрова. Он посвящен вопросам использования водных ресурсов на территории Каттакорганского водохранилища в Самаркандской области. Рассмотрено распределение вод Каттакурганского водохранилища по районам Самаркандской области.*

Ключевые слова: *Узан, приток, орошение, канал, плотина, антропогенный, гидрографический.*

Kirish. Kattaqo‘rg‘on suv ombori gidrotexnika inshooti, O‘zbekistonda birinchi qurilgan suv ombori. Kattaqo‘rg‘on shahri yaqinida tabiiy chuqurlikda barpo etilgan.

Asosiy qism. Kattaqo‘rg‘on suv ombori Zarafshon vodiysidagi ekin maydonlarini suv bilan ta‘minlaydi va Zarafshon (Qoradaryo) daryosi suv rejimini tartibga soladi, sel va toshqin suvlarini jamg‘aradi. 1940 – 1951 yillar davomida qurilib, foydalanishga topshirildi. Kattaqo‘rg‘on suv omborining asosiy inshooti kompleksi suv chiqargichli to‘g‘on, suv keltiriladigan va suv oqib ketadigan kanallardan iborat. 1941-yilda uzunligi 4 km, balandligi 28 m tuproqto‘g‘on ko‘tarildi (keyinchalik to‘g‘on balandligi 31,5 m ga yetkazildi). Suv omborining hajmi yildan – yilga oshirib borildi va 1954-yilda loyihada ko‘rsatilgan miqdor – 662 mln. m³ ga yetkazildi. Uzunligi 28 km, suv sarfi 45 m³/s suv keltiruvchi kanal va uzunligi 15,2 km, suv sarfi 123 m³/s suv chiqaruvchi kanal qurildi. 1956-yil suv keltiruvchi kanal rekonstruksiya qilinib, uning suv o‘tkazish imkoniyati 100 m³/s ga yetkazildi, o‘zani to‘g‘rilanib, kengaytirildi va o‘zanga beton to‘shama yotqizildi. Natijada kanal uzunligi 21,2 km ga yetdi. To‘g‘on (maksimal balandligi 28,62 m, uzunligi 3915 m) va quloqlarning rekonstruksiya qilinishi natijasida (1968-yilda) Kattaqo‘rg‘on suv ombori sig‘imi 900 mln. m³ ga yetkazildi, shundan foydali sig‘imi 840 mln. m³. Suv yuzasi maydoni 79,5 km². Uzunligi 15 km, maksimal eni 10 km, o‘rtacha eni 5,3 km, maksimal chuqurligi 25 m, o‘rtacha chuqurligi 11,3 m.

Kattaqo‘rg‘on suv ombori suvi bilan Samarqand, Buxoro viloyatlaridagi 94 ming ga yer sug‘oriladi va 150 ming ga yerning suv ta‘minoti yaxshilangan. Kattaqo‘rg‘on suv ombori suvi kanal bilan Qoradaryoga quyiladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ma‘lumotlardan kelib chiqib qaralsa Kattaqo‘rg‘on suv ombori asosan Zarafshon vodiysini suv bilan ta‘minlaydi.

Zarafshon vodiysi – Markaziy Osiyoning markaziy qismida, Turkiston–Oqtov bilan Zarafshon tizmalari orasida joylashgan ko‘ndalang vodiy. Zarafshon vodiysining sharqiy tog‘li qismi Tojikiston, g‘arbiy tog‘ etagi va tekislik qismi O‘zbekiston hududida. Tektonik yo‘l bilan vujudga kelgan. Hozirgi relyefining shakllanishida Zarafshon daryosining doimiy va vaqtli irmoqlari hamda shamol muhim rol o‘ynagan. Zarafshon vodiysi Zarafshon muzligidan (balandligi 2775 metr) boshlanib, g‘arbda Sandiqli cho‘ligacha (balandligi 185 metr) 781 kilometr ga cho‘zilgan. Vodiy shu masofada g‘arbiy, janubi-g‘arbiy yo‘nalishda davom etadi va asta-sekin pasayib hamda kengayib boradi. Zarafshon vodiysi, asosan, ustuni to‘rtlamchi davr allyuvial jinslari qoplagan uchlamchi davr cho‘kindi jinslaridan tarkib topgan. Bu yerda neogen davrigacha dengiz bo‘lgan. Alp orogenezida vodiy quruqlikka aylangan. Zarafshon daryosi o‘z o‘zanini chuqurlashtirib, terrasalar (ko‘hna qayirlar) hosil qilgan. Zarafshon vodiysining sharqiy tog‘li qismida 6 ta terrasa bor. Panjakent shahrigacha (300 kilometr masofada) vodiy tor va chuqur, Turkiston va

Zarafshon tizmalari undan tik ko'tarilib turadi. Zarafshon daryosi yuqori qismida muz harakati bilan vujudga kelgan ancha keng (4–5 kilometr) vodiy hosil qilgan. Kishtutsoyning Zarafshonga quyiladigan yerida vodiy juda tor, tog' yon bag'ri daryo qirg'og'idan tik ko'tarilgan. Quyi qismida vodiy kengayib, O'zbekiston hududiga o'tgach, kengligi ayrim joylarda 60–70 kilometr (Buxoro vohasida) yetadi. O'zbekiston xududida Zarafshon vodiysining uzunligi qariyb 480 kilometr bo'lib, bu qismida Samarqand, Buxoro, Qorako'l vohalari joylashgan.



Kattaqo'rg'on suv ombori

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, suv manbalarini miqdor jihatdan muhofaza qilishning birorta universal usuli yo'q. Asosiy yo'nalish oqova suvlarini kamaytirish yoki umuman to'xtatish bo'lib, u bir qancha yordamchi choralar tufayli amalga oshiriladi. Suvdan foydalanish jarayonida uni muhofaza qilish ularning hammasi uchun xos bo'lgan umumiylikdir. Boshqacha qilib aytganda suv boyliklarini himoya qilish faqat taqiqlashlaru chegaralashlardan iborat emas. Bu yo'lda noto'g'ri yo'nalishlarga tezda chek qo'yish, oldindan tadbirlar belgilash, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolardan ogohlantirish ham muhimdir.

Kattaqo'rg'on suv omborining qurilishi munosabati bilan Samarqand viloyatidagi umumiy ekin maydonining yarmidan ko'pi yetarli darajada suv bilan ta'minlandi. Suv omborining qurilib ishga tushirilishi natijasida Samarqand, Buxoro viloyatlaridagi 94 ming ga yer sug'oriladi va 150 ming ga yerning suv ta'minoti yaxshilangan. Yangidan o'zlashtirilgan yerlarda ingichka tolali paxta, don ekinlari, mevali bog'lar, uzum, sabzavotlar, poliz ekinlari ekilib, katta miqdorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Muradov R. A., Barnayeva M. A., Muzaffarov M. Preparation of the soil for washing irrigation //Economics and Society. – 2021. – Т. 3. – №. 2. – С. 178-182.
3. Муродов, Р. А., Барнаева, М. А., Ибодов, И. Н., & Ёкубов, Т. А. (2020). Динамика объемной влажности при послойно-поэтапном рыхлении на фоне горизонтального систематического дренажа. *Экономика и социум*, (11 (78)), 933-936.
4. Suyunov, J., & Bobomurodova, M. (2021). Purpose of floating structures for all types of water supplying structures. *European Scholar Journal*, 2(12), 126-129.
6. Shomurodov, A. A., Qurbonov, K., Ergashev, X. E., Baratov, D. D., & Qurbonov, S. (2023, February). Measures to reduce negative effects of waste using the Amu-Bukhara machine channel. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1138, No. 1, p. 012010). IOP Publishing.
7. Norkulov, B., Khujakulov, R., Kurbanov, I., Kurbanov, A., Jumaboyeva, G., & Kurbanov, A. (2023). Regime of deposition of sediments in the head settlement basin of the supply channel of pumping stations. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 365, p. 03045). EDP Sciences.
8. Худойбердиев Қ., Одинаев А. Сув омбори бунёдкорлари. –Тошкент: Шарк, 2006. -256 б.
9. То‘хтаев А. С., Хамидов А. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent: O‘qituvchi, 1964
10. <https://lex.uz/docs/4494500>